


XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 42 917 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 25 162 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 58,6 % ini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (46,2 %), savdo (18,8 %), sanoat (9,1 %) va qurilish (4,9 %) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2025- yil 1-oktabr holatiga)**

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %da	birlik	jamiga nisbatan %da
Jami	42 917	100,0	25 162	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 848	46,2	10 041	39,9
sanoat	3 921	9,1	2 098	8,3
qurilish	2 097	4,9	1 189	4,7
savdo	8 048	18,8	5 101	20,4
tashish va saqlash	606	1,4	384	1,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 954	4,6	1 230	4,9
axborot va aloqa	393	0,9	237	0,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	461	1,1	378	1,5
boshqa faoliyat turlari	5 589	13,0	4 504	17,9

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 28 201 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 17 911 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 63,5 % ini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning ulushi) savdo (28,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,2 %) sanoat (13,9 %) va qurilish (7,4 %) sohalariga to'g'ri keldi.

Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2025- yil 1-oktabr holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan %da	birlik	jamiga nisbatan %da
Jami	28 201	100,0	17 911	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5132	18,2	2790	15,6
sanoat	3921	13,9	2098	11,7
qurilish	2097	7,4	1189	6,6
savdo	8048	28,5	5101	28,5
tashish va saqlash	606	2,1	384	2,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1954	6,9	1230	6,9
axborot va aloqa	393	1,6	237	1,4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	461	1,6	378	2,1
boshqa faoliyat turlari	5589	19,8	4504	25,1

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri 7 278 ta (25,8 %), Sharof Rashidov 4 000 ta (14,2 %), G'allaorol 2 569 ta (9,1 %) va Zomin 2 394 ta (8,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1-oktabr holatiga 17 911 taga yetib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 1 048 taga kamaydi (o‘sish sur‘ati 94,5 %). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 34,4 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 18,6 %, sanoat – 14,1 %, qurilish – 7,9 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 8,3 %, tashish va saqlash – 2,6 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,7 %, axborot va aloqa – 1,5 %, boshqa sohalar – 10,9 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari

Jami:	17 911	Jizzax shahri	4 796
Arnasoy tumani	893	Zarbdor tumani	838
Baxmal tumani	1 338	Mirzacho‘l tumani	420
G‘allaorol tumani	1 607	Zafarobod tumani	567
Sharof Rashidov tumani	2 580	Paxtakor tumani	899
Do‘stlik tumani	626	Forish tumani	1 197
Zomin tumani	1 575	Yangiobod tumani	449

**Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(2025- yil 1-oktabr holatiga, birlik)**

	2025- yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olinganlar soni	Shu jumladan, 2025- yil yanvar-sentabr oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	42 917	2 870	10 069
<i>shahar:</i>			
Jizzax	7 336	632	1 904
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 731	297	500
Baxmal	3 750	177	720
G'allaorol	4 635	303	1 293
Sharof Rashidov	5 762	428	1 436
Do'stlik	1 907	127	412
Zomin	4 048	221	1 111
Zarbdor	3 331	133	608
Mirzacho'l	2 072	88	450
Zafarobod	1 976	107	383
Paxtakor	2 198	137	422
Forish	2 276	131	588
Yangiobod	895	89	242

2025- yilning yanvar–sentabr oylarida jami 2 870 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olindi (shundan kichik biznes sub'yektlari 2 705 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 22,0 %i), Sharof Rashidov (14,9 %), G'allaorol (10,6 %) hamda Arnasoy (10,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


**Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar
bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)

	2025- yil 1-oktabr holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2025- yil yanvar-sentabr oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	2 8201	2 820	6 920
<i>shahar:</i>			
Jizzax	7 278	632	1 889
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 364	292	260
Baxmal	2 079	176	392
G'allaorol	2 569	298	723
Sharof Rashidov	4 000	425	935
Do'stlik	1 133	117	281
Zomin	2 394	218	699
Zarbdor	1 420	131	323
Mirzacho'l	1 059	76	267
Zafarobod	980	107	196
Paxtakor	1 468	136	273
Forish	1 776	130	525
Yangiobod	681	82	157

2025- yilning yanvar–sentabr oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 2 820 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 2 705 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 632 tasi, yoki 22,4 %), Sharof Rashidov (425 ta, 15,1 %), G'allaorol (298 ta, 10,6 %) va Arnasoy (292 ta, 10,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil 1-oktabr holatiga 24 869 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 18 844 ta, xususiy korxonalar 3 606 ta, oilaviy korxonalar 2 009 ta, boshqa tijorat korxonalar 410 tani tashkil etdi.

Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 32,4 %i savdo, 20,5 %i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 15,7 %i sanoat va 7,8 %i yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalariga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 6 750 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2025- yilning 1-oktabr holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 240 tani tashkil etdi.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 74 ta, Turkiya Respublikasi 54 ta, Rossiya Federatsiyasi 37 ta, Buyuk Britaniya 5 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 70 ta korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, *birlikda*

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 102 tasi qo'shma korxonalar, 138 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024-2025- yillar 1-oktabr holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 34 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 63,0 % ga kamaygani kuzatildi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 18 ta, Turkiya Respublikasi – 7 ta, Rossiya Federatsiyasi – 3 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 6 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2025- yil 1-oktabr holatiga, birlikda)

	2025- yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	240	102	138
<i>shahar:</i>			
Jizzax	84	31	53
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	19	4	15
Baxmal	8	4	4
G'allaorol	17	7	10
Sharof Rashidov	24	11	13
Do'stlik	9	4	5
Zomin	20	9	11
Zarbdor	6	2	4
Mirzacho'l	3	1	2
Zafarobod	10	4	6
Paxtakor	9	7	2
Forish	29	17	12
Yangiobod	2	1	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 84 ta (umumiy miqdordagi ulushi 35 %), Forish tumanida 29 ta (12,1 %), Zomin tumanida 20 ta (8,3 %), Sharof Rashidov tumanida 24 ta (10,0 %), Arnasoy tumanida 19 ta (7,9 %) hamda G'allaorol tumanida 17 ta (7,1 %) ni tashkil etdi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2025- yil 1-oktabr holatiga)**


	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	240	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24	10,0
Sanoat	126	52,5
Qurilish	11	4,6
Savdo	28	11,7
Tashish va saqlash	4	1,7
Yashash va ovqatlanish	5	2,1
Axborot va aloqa	27	11,3
Boshqa faoliyat turlari	15	6,1

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 240 ta korxonaning 126 tasi (52,5 %) sanoat, 28 tasi (11,7 %) savdo, 24 tasi (10,0 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 11 tasi (4,6 %) qurilish, 4 tasi (1,7 %) tashish va saqlash, 5 tasi (2,1 %) yashash va ovqatlanish, 27 tasi (11,3 %) axborot va aloqa hamda 15 tasi (6,1 %) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)


2025- yil 1-oktabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 21 981 tani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 095 tasi (18,6 %) Jizzax shahriga, 3 139 tasi (14,3 %) Sharof Rashidov, 2 358 tasi (10,7 %) G'allaorol va 2 243 tasi (10,2 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 21 981 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 9 996 tasi (45,5 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 5 090 tasi (23,2 %) savdo, 2 062 tasi (9,4 %) sanoat, 1 168 tasi (5,3 %) qurilish, 1 226 tasi (5,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 379 tasi (1,7 %) tashish va aqlash, 253 tasi (1,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 222 tasi (1,0 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 585 tasi (7,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri kelib, eng kam ulushlar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohaslariga to'g'ri keldi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining
iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimoti, % da**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi 2 705 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etildi. Bu esa 2024- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 24,2 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (611 ta), Sharof Rashidov (415 ta), G'allaorol (269 ta) tumanlarida, eng kam xo'jalik sub'yektlari Zafarobod (106 ta), Mirzacho'l (73 ta), Yangiobod (81 ta), Do'stlik (108 ta), Forish (113 ta) hamda Paxtakor (130 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo (913 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (588 ta), sanoat (349 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (248 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (303 ta) hissalariga, eng kamlari esa, qurilish (158 ta), axborot va aloqa (63 ta), tashish va saqlash (50 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'satish (33 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1-oktabr holatiga 2 009 tani tashkil etdi, ulardan 1 139 tasi yoki 56,7 % i faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 397 tasi yoki 34,9 % i savdo, 342 tasi yoki 30,0 % i sanoat, 210 tasi yoki 18,4 % i yashash va ovqatlanish xizmatlari, 102 tasi yoki 9,0 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13 tasi yoki 1,1 % i sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, qolgan 5,4 % i boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.

Xususiy korxonalar soni (2025- yil 1-oktabr holatiga, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2025- yil 1-oktabr** holatiga ko'ra 3 606 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 210 taga yoki 25,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 1 786 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 494 taga yoki 21,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 93 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 179 taga yoki 65,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2025- yil 1-oktabr holatiga, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2025- yil 1-oktabr holatiga 18 844 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 004 taga yoki 9,6 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 703 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 235 taga yoki 2,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 431 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 467 taga yoki 16,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

